



## BANK KREDITLARI FOIZ STAVKALARINI PASAYTIRISH ORQALI INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH YO'LLARI

**Aytmuratov Qutlimurat Jalgasovich**

Qoraqalpoq davlat universiteti

raqamli iqtisodiyot yo'nalishi 3-kurs talabasi

Tel: +998938482207 e-mail: aytmuratovqutlymurat@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21214009>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-iyul 2026 yil

Ma'qullandi: 04-iyul 2026 yil

Nashr qilindi: 06-iyul 2026 yil

### KEY WORDS

*bank krediti, foiz stavkasi, investitsion faollik, investitsiyalar, tijorat banklari, pul-kredit siyosati, investitsion kreditlash, kapital bozori, real foiz stavkasi, iqtisodiy o'sish.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada bank kreditlari foiz stavkalarining investitsion faollikka ta'siri tahlil qilinib, kredit resurslari qiymatini pasaytirish orqali investitsiyalarni rag'batlantirish yo'llari yoritilgan. Tadqiqot natijasida bank kreditlari foiz stavkalarini maqbullashtirish investitsion faollikni oshirishning muhim omili ekanligi asoslab berilgan.*

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish tarmoqlarini kengaytirish hamda investitsion faollikni oshirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda bank kreditlari asosiy moliyaviy manbalardan biri bo'lib, korxonalar va tadbirkorlik subyektlarining investitsion loyihalarini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Biroq, bank kreditlari bo'yicha yuqori foiz stavkalari investitsion faoliyatning kengayishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, iqtisodiy o'sish sur'atlarini sekinlashtirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalar va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish eng muhim omillardan biridir. Shu nuqtai nazardan, kredit resurslarining arzon va qulay bo'lishi investitsion jarayonlarni jadallashtirishga xizmat qiladi. Aksincha, yuqori foiz stavkalari korxonalar uchun moliyaviy yukni oshirib, yangi loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarini cheklab qo'yadi.[1]

Bugungi globallashuv sharoitida investitsion faollik iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikni ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Biroq kredit resurslari narxining yuqoriligi, ayniqsa kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun moliyaviy to'siqlarni yuzaga keltirib, investitsion faollikning pasayishiga olib kelmoqda. Shu sababli bank kreditlari foiz stavkalarining iqtisodiy oqibatlarini ilmiy asosda o'rganish dolzarb masalalardan biridir.

### Adabiyotlar tahlili

Bank kreditlari bo'yicha foiz stavkalari investitsion faollikni belgilovchi asosiy moliyaviy omillardan biri hisoblanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda foiz stavkalarining investitsiyalarga ta'siri klassik, neoklassik va keynschilik nazariyalari doirasida keng o'rganilgan. Ushbu

yondashuvlarga ko'ra, kredit resurslari narxining o'zgarishi korxonalarning investitsiya qarorlari, banklarning kreditlash siyosati va iqtisodiy o'sishga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Klassik iqtisodiyot vakili D. Ricardo kreditga bo'lgan talab investitsiyadan olinadigan kutilayotgan foyda bilan kredit foizi o'rtasidagi nisbatga bog'liqligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, foiz stavkasining pasayishi investitsiya loyihalarining jozibadorligini oshirib, kreditga bo'lgan talabni rag'batlantiradi. A. Marshall foiz stavkasini kapital bozorida talab va taklifni muvozanatlashtiruvchi narx sifatida izohlaydi. Olimning fikricha, foiz stavkasi kapital resurslarining samarali taqsimlanishini ta'minlaydi hamda investitsiyalarni eng daromadli yo'nalishlarga yo'naltiradi. [2] Foiz stavkalari va investitsiyalar o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur asoslab bergan J.M. Keynes likvidlikni afzal ko'rish nazariyasida foiz stavkasini pul bozori muvozanatining natijasi sifatida izohlaydi. Unga ko'ra, Markaziy bank tomonidan foiz stavkalarining pasaytirilishi kredit resurslarini arzonlashtirib, investitsiyalar, ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.[3]

Zamonaviy iqtisodiy nazariyalarda kredit foiz stavkalarining shakllanishi marjinal xarajatlar, talab va taklif, risk va daromadlilik, pulning vaqt qiymati hamda inflyatsion kutishlar nazariyalari asosida izohlanadi. Ushbu yondashuvlar kredit resurslari qiymatiga bank xarajatlari, bozor sharoiti, kredit riski va inflyatsiya darajasi birgalikda ta'sir qilishini ko'rsatadi.

Xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham mazkur bog'liqlikni tasdiqlaydi. C. Balloch va Y. Koby Yaponiya tajribasini tahlil qilib, past foiz stavkalari kreditlashni rag'batlantirishi bilan birga, banklarning foiz daromadlari qisqarishi sababli kredit siyosati ehtiyotkorlashishi mumkinligini qayd etganlar. C.W. Wang va hammualliflar esa kredit muddati uzayishi bank tavakkalchiligini oshirib, kredit qiymatining qimmatlashishiga olib kelishini ilmiy asoslaganlar.

Mahalliy iqtisodchi olimlar D. G'ozibekov [4], A. Vahobov[5], N. Jumayev, Sh.[6], Mustafakulovlar [7] va boshqalar ilmiy ishlarida O'zbekiston bank tizimida kredit foiz stavkalarini pasaytirish, uzoq muddatli investitsion kreditlashni rivojlantirish hamda banklar resurs bazasini mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratganlar. Ularning fikricha, kredit resurslari qiymatini pasaytirish uchun inflyatsiyani barqarorlashtirish, banklar o'rtasida raqobatni kuchaytirish va moliyaviy resurslar bazasini kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bank kreditlari foiz stavkalarini pasaytirish investitsion faollikni oshirishning muhim shartlaridan biridir. Biroq bunga erishish nafaqat pul-kredit siyosati, balki inflyatsiyani jilovlash, bank tizimi barqarorligini ta'minlash, kredit risklarini kamaytirish va moliyaviy bozorlar samaradorligini oshirish bilan uzviy bog'liqdir.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur tadqiqotda bank kreditlari foiz stavkalarining investitsion faollikka ta'sirini o'rganishda tahlil va sintez, qiyosiy, mantiqiy, statistik tahlil, taqqoslash hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Statistika agentligi va boshqa rasmiy manbalarning statistik ma'lumotlari hamda mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilinib, ular asosida ilmiy xulosa va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

**Muhokama va natijalar**

So'nggi yillarda O'zbekistonda bank-moliya tizimini isloh qilish, pul-kredit siyosatini takomillashtirish va banklar faoliyatini bozor tamoyillari asosida rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Natijada kreditlash hajmlari ortib, iqtisodiyotning sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish va iste'mol sektorlari bo'yicha kredit qo'yimalari kengaydi. Biroq iqtisodiyot tarmoqlari kesimida kredit foiz stavkalarining turlicha shakllanishi, ayrim yo'nalishlarda kredit resurslarining qimmatligi hamda yuqori foiz stavkalarining investitsion faollikka ta'siri kredit siyosatini chuqur tahlil qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu jihatdan, O'zbekistonda bank kreditlari foiz stavkalari dinamikasi va ularning tarmoqlar kesimidagi holatini o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

**1-jadval**

**Bank tizimi faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari  
to'g'risida ma'lumot (mlrd. so'm)**

| Ko'rsatkichlar<br>nomi      | 01.04.2025 y. |                                  |                   | 01.04.2026 y. |                                  |                   | O'zgari<br>shi,<br>foizda |
|-----------------------------|---------------|----------------------------------|-------------------|---------------|----------------------------------|-------------------|---------------------------|
|                             | jami          | shundan,<br>xorijiy<br>valyutada | ulushi,<br>foizda | jami          | shundan,<br>xorijiy<br>valyutada | ulushi,<br>foizda |                           |
| Bank aktivlari,<br>jami     | 800 652       | 318 900                          | 40%               | 959 442       | 349 614                          | 36%               | 20%                       |
| Kredit<br>qo'yimalari, jami | 551 809       | 232 489                          | 42%               | 623 286       | 246 256                          | 40%               | 13%                       |
| Jami depozitlar             | 325 953       | 77 076                           | 24%               | 433 934       | 88 558                           | 20%               | 33%                       |
| Jami kapital                | 120 764       | 413                              | 0,3%              | 141 492       | 0,0                              | 0,0%              | 17%                       |


Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2025–2026-yillar davomida O'zbekiston bank tizimi faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarida barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Xususan, bank aktivlari hajmi 2025-yil 1-aprel holatidagi 800 652 mlrd so'mdan 2026-yil 1-aprel holatiga 959 442 mlrd so'mga yetib, 20 foizga oshgan. Mazkur holat bank tizimining iqtisodiyotdagi moliyaviy vositachilik funksiyasi kengayayotganligini hamda banklar tomonidan moliyaviy resurslarni jalb qilish va joylashtirish hajmi ortayotganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bank aktivlari tarkibida xorijiy valyutadagi aktivlar ulushi 40 foizdan 36 foizga pasaygan bo'lib, bu milliy valyutadagi operatsiyalar ulushi ortayotganini hamda valyuta risklarini kamaytirishga qaratilgan siyosat natijadorligini ifodalaydi.

Kredit qo'yimalari hajmi tahlil qilinayotgan davrda 551 809 mlrd so'mdan 623 286 mlrd so'mga oshib, 13 foizlik o'sishni qayd etdi. Kredit portfelidagi ushbu o'sish iqtisodiyot tarmoqlarini moliyalashtirish hajmi kengayayotganligini anglatadi. Biroq kredit qo'yimalari o'sish sur'ati bank aktivlari o'sish sur'atiga nisbatan pastroq bo'lgani banklarning kredit risklarini ehtiyotkorlik bilan boshqarishga harakat qilayotganligini ko'rsatadi. Kreditlar

tarkibida xorijiy valyutadagi kreditlar ulushi 42 foizdan 40 foizga kamaygan bo'lib, bu ham iqtisodiyotda dedollarizatsiya jarayonlari kuchayib borayotganidan dalolat beradi.

Tahlil natijalariga ko'ra, bank tizimida eng yuqori o'sish depozitlar hajmida kuzatilgan. Jumladan, jami depozitlar hajmi 325 953 mlrd so'mdan 433 934 mlrd so'mga oshib, 33 foizlik o'sishni tashkil etgan. Bu aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning bank tizimiga bo'lgan ishonchi ortib borayotganini ko'rsatadi. Depozitlar tarkibida xorijiy valyutadagi mablag'lar ulushi 24 foizdan 20 foizga pasaygani milliy valyutadagi jamg'armalarning ortayotganligini anglatadi. Mazkur holat banklarning resurs bazasini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

Quyidagi grafikda 2021–2025-yillarda O'zbekistonda kredit foiz stavkalarining o'rtacha dinamikasi aks ettirilgan: O'zbekistonda tijorat banklari kreditlari bo'yicha o'rtacha foiz stavkalari o'zgarishi.




#### **1-diagramma. 2021–2025-yillarda kredit foiz stavkalari dinamikasi**

Tarmoqlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori foiz stavkalari asosan iste'mol kreditlari, mikroqarzarlar va savdo faoliyatini moliyalashtirishda kuzatilgan. Xususan, 2025-yilda mikroqarzarlar bo'yicha o'rtacha stavka 33–35 foiz atrofida shakllangan bo'lsa, avtokreditlarda bu ko'rsatkich 24 foizni tashkil etdi.

Bunga qarama-qarshi ravishda, sanoat, qishloq xo'jaligi, eksportyor korxonalar va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda foiz stavkalari nisbatan past bo'lib, davlat dasturlari va subsidiyalangan kredit mexanizmlari muhim rol o'ynadi. Ushbu holat iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rag'batlantirish va investitsion faollikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kredit foiz stavkalarining yuqori darajada saqlanishi investitsion faollikka ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun kredit resurslarining qimmatligi investitsiya loyihalarining rentabelligini kamaytiradi. Shu sababli, kelgusida bank tizimida resurs bazasini arzonlashtirish, uzoq muddatli moliyalashtirish instrumentlarini rivojlantirish hamda tarmoqlar kesimida differensial foiz siyosatini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, 2021–2025-yillarda O'zbekiston bank tizimida kredit foiz stavkalari bosqichma-bosqich pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan bo'lsa-da, ayrim yuqori riskli tarmoqlarda foiz stavkalari yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Bu esa tijorat banklari faoliyatida risk va rentabellik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash zarurligini ko'rsatadi.

**Kreditlar bo'yicha real foiz stavkalari, foizda\*****2-diagramma. Kreditlar bo'yicha real foiz stavkalari, foizda\***

2025-yil holatiga O'zbekistonda milliy valyutadagi kreditlar bo'yicha nominal foiz stavkalarining pasayish tendensiyasi kuzatildi, bu esa pul-kredit siyosatining nisbatan yumshayotganidan dalolat beradi. Xususan, aholi kreditlari bo'yicha nominal foiz stavkasi 22,6 foizni, yuridik shaxslar kreditlari bo'yicha esa 19,0 foizni tashkil etdi. Yuridik shaxslar kreditlari bo'yicha foiz stavkasining 1,3 foiz bandga pasayishi biznes subyektlari uchun kredit resurslari qiymati arzonlashayotganini va investitsion faollikni rag'batlantirayotganini ko'rsatadi.

Aholi kreditlari bo'yicha foiz stavkalarining nisbatan yuqori saqlanib qolishi esa iste'mol kreditlari segmentidagi tavakkalchilik darajasining yuqoriligi bilan izohlanadi. Tijorat banklari kredit risklarini hisobga olgan holda aholi kreditlari bo'yicha foiz stavkalarini yuridik shaxslarga nisbatan yuqoriroq belgilamoqda.

Real foiz stavkalari tahlili ham investitsion jarayonlar uchun muhim ahamiyatga ega. 2025-yilda aholi kreditlari bo'yicha real foiz stavkasi 9,7 foizni, yuridik shaxslar kreditlari bo'yicha esa 7,1 foizni tashkil etdi. Yuridik shaxslar kreditlari bo'yicha real foiz stavkasining pasayishi investitsiya loyihalarining moliyaviy jozibadorligini oshirib, real sektorni kreditlash uchun qulay sharoit yaratmoqda.

Shuningdek, tahlillar O'zbekistonda investitsion jarayonlarning ijobiy dinamikasini ham tasdiqlaydi. Jumladan, 2023-yilda iqtisodiyotga jalb etilgan jami investitsiyalar hajmi 2020-yilga nisbatan qariyb 3,1 barobarga oshib, 19,8 mlrd AQSH dollariga yetdi. Bu mamlakatda investitsion muhitning yaxshilanib borayotganini hamda bank-moliya tizimi orqali investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari samaradorligi ortayotganini ko'rsatadi.

Quyidagi jadvalda investitsion faoliyatning asosiy ko'rsatkichlari va ularning yillar kesimidagi o'zgarish dinamikasi aks ettirilgan.

**2-jadval.****O'zbekistonda investitsion faollikning asosiy ko'rsatkichlari (2020-2023 yy.)**

| Ko'rsatkich                                    | 2020-y. | 2021-y. | 2022-y. | 2023-y. |
|------------------------------------------------|---------|---------|---------|---------|
| Jami investitsiyalar (mlrd AQSh \$)            | 6.4     | 9.7     | 14.2    | 19.8    |
| To'g'ridan-to'g'ri xorijiy inv. (mlrd AQSh \$) | 1.6     | 2.0     | 4.1     | 10.6    |
| Investitsiyalar/YaIM (%)                       | 26.8    | 28.4    | 30.1    | 32.7    |
| Investitsion kreditlar (trln so'm)             | 24.6    | 38.2    | 58.3    | 82.8    |


|                         |      |      |      |      |
|-------------------------|------|------|------|------|
| Bank aktivlari/YaIM (%) | 58.4 | 62.1 | 65.8 | 68.3 |
|-------------------------|------|------|------|------|

2-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 2020–2023-yillarda O'zbekistonda investitsion faollik barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Xususan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 2023-yilda 10,6 mlrd AQSH dollariga yetib, 2020-yilga nisbatan 6,6 barobar oshgan. Bu mamlakatda investitsion muhitning yaxshilanayotgani hamda investorlar uchun yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar natijasi hisoblanadi.

Mazkur davrda investitsiyalarning YaIMdagi ulushi 26,8 foizdan 32,7 foizgacha, investitsion kreditlar hajmi esa 24,6 trln so'mdan 82,8 trln so'mgacha oshdi. Bu bank tizimining investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi roli kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, bank aktivlarining YaIMga nisbati 58,4 foizdan 68,3 foizga ko'tarilib, moliyaviy vositachilik samaradorligi ortganini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, investitsion faollikni cheklayotgan omillardan biri tijorat banklari kreditlari bo'yicha foiz stavkalarining nisbatan yuqori darajada saqlanib qolayotganidir. 2023–2024-yillarda kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkalarining 21–22 foiz atrofida shakllanishi, ayniqsa, kichik va o'rta biznes subyektlari uchun investitsiya loyihalarini moliyalashtirish xarajatlarini oshirmoqda.

Umuman olganda, tahlillar O'zbekistonda investitsion faollikning ijobiy dinamikasini ko'rsatmoqda. Biroq ushbu jarayonni yanada jadallashtirish uchun bank kreditlari foiz stavkalarini maqbullashtirish, uzoq muddatli moliyaviy resurslar bazasini kengaytirish hamda kapital bozorini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.



**3-diagramma. O'zbekistonda kredit portfeli va investitsion kreditlar dinamikasi (2019–2024 yy.)**


3-diagramma ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda investitsion kreditlar hajmi so'nggi yillarda barqaror o'sib bormoqda. Bu bank tizimining real sektorni moliyalashtirishdagi faolligi ortayotganini hamda investitsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash ko'lamini kengayayotganini anglatadi. Xususan, 2024-yil uchun prognoz qilingan 42,0 trln so'mlik investitsion kreditlar hajmi tasdiqlansa, ushbu ko'rsatkich so'nggi besh yilda qariyb 5,7 barobar oshgan bo'ladi.

Biroq investitsion kreditlash hajmi ortayotganiga qaramay, kredit resurslari qiymatining yuqori darajada saqlanib qolishi investitsion faollikni cheklovchi omillardan biri bo'lib qolmoqda. Tijorat banklari kreditlari bo'yicha yuqori foiz stavkalari investitsiya loyihalarini rentabelligini pasaytirib, ularning o'zini qoplash muddatini



uzaytiradi. Ayniqsa, bu holat kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Shu bois investitsion faollikni yanada oshirish uchun uzoq muddatli moliyaviy resurslar bazasini kengaytirish, kapital bozorini rivojlantirish hamda bank kreditlari bo'yicha foiz stavkalarini bosqichma-bosqich maqbullashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu investitsiya loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirib, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga xizmat qiladi.



**4-diagramma. Kredit foiz stavkasi va investitsiyalarning YaIMga nisbati o'rtasidagi bog'liqlik (2019–2024 yy.)**

3-diagramma tahlili foiz stavkalari va investitsion faollik o'rtasida teskari, ya'ni invers bog'liqlik mavjudligini aniq ko'rsatadi. Xususan, 2022-yilda tijorat banklari kreditlari bo'yicha foiz stavkalari 22,7 foizgacha ko'tarilgan davrda investitsiyalarning YaIMdagi ulushi o'sish sur'atlari nisbatan sustlashgan. Bu holat yuqori kredit qiymati investitsion jarayonlarning faollashuviga salbiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Chunki kredit resurslari narxining oshishi korxonalar uchun qarz mablag'laridan foydalanish xarajatlarini ko'paytiradi va investitsion loyihalarining iqtisodiy samaradorligini pasaytiradi. Natijada ko'plab xo'jalik yurituvchi subyektlar yangi investitsion loyihalarni boshlash yoki mavjudlarini kengaytirish bo'yicha qarorlarni kechiktirishga majbur bo'ladi.

Ayniqsa, uzoq muddatli investitsiyalar talab qiladigan sanoat, qurilish va ishlab chiqarish tarmoqlarida yuqori foiz stavkalari investitsion faollikni cheklovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'lgan. Yuqori foiz xarajatlari investitsiya loyihalarining rentabellik darajasini pasaytirib, ularning o'zini qoplash muddatini uzaytiradi. Bu esa real sektor korxonalarning moliyaviy barqarorligiga ham ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun yuqori foizli kreditlar investitsion resurslardan foydalanish imkoniyatlarini yanada cheklaydi.

#### **Xulosa va tavsiyalar**

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bank kreditlari bo'yicha foiz stavkalari investitsion faollikka bevosita ta'sir ko'rsatadigan muhim omillardan biridir. Kredit foizlarining yuqori darajada shakllanishi korxonalarning investitsiya loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlarini cheklaydi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish sur'atlarini sekinlashtiradi. Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun kredit resurslarining qimmatligi investitsion faollikni pasaytiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, investitsiyalar hajmini oshirishda kredit resurslarining miqdori bilan bir qatorda ularning narxi, ya'ni foiz stavkalari ham muhim ahamiyatga ega. Shu bois bank kreditlari bo'yicha foiz stavkalarini maqbullashtirish investitsion muhitni yaxshilash va iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- bank kreditlari foiz stavkalarini inflyatsiya darajasi va makroiqtisodiy barqarorlikni hisobga olgan holda bosqichma-bosqich pasaytirish;
- bank tizimida raqobatni kuchaytirish hamda resurs bazasini kengaytirish orqali kredit resurslari qiymatini kamaytirish;
- kapital bozorini rivojlantirish va investitsiyalarni moliyalashtirishning muqobil manbalarini kengaytirish;
- iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlari uchun imtiyozli va differensial kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish;
- raqamli moliyaviy texnologiyalarni joriy etish orqali kreditlash jarayonlarini soddalashtirish va bank xarajatlarini qisqartirish.

Xulosa qilib aytganda, bank kreditlari bo'yicha foiz stavkalarini maqbullashtirish investitsion faollikni oshirish, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish hamda iqtisodiyotning barqaror va uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2020, January 24). Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va inflyatsiyani jilovlash – iqtisodiy islohotlar jarayonidagi bosh vazifamizdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. <https://president.uz/oz/3317>
2. Маршалл А. Принципы политической экономии: в 3 т. Т. 1/общ. ред. С. М. Никитина. М.:Прогресс, 1983. 416 с
3. Кейнс Д.М. Общая теория занятости, процента и денег. Москва: Гелиос АРВ, 2011. 352 с.
4. G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish muammolari. Monografiya. Toshkent: Moliya, 2003. 224-b.
5. Vahobov A.V. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida investitsiya siyosatining ustuvor yo'nalishlari // Iqtisodiyot va ta'lim. 2021. №4. 8–14-b.
6. Jumayev N.X. O'zbekistonda investitsiya faoliyatini rag'batlantirish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mexanizmlari. Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. 210-b.
7. Mustafakulov, S. (2017). Investment Attractiveness of Regions: Methodic Aspects of the Definition and Classification of Impacting Factors. European Scientific Journal, ESJ, 13(10), 433. <https://doi.org/10.19044/esj.2017.v13n10p433>
8. Sarsenbaev, B., Rakhimboev, M., Aytmuratova, U., Kaypnazarova, G., & Shamshetova, D. (2025, November). Econometrical modeling of dynamic processes of labor market development. In AIP Conference Proceedings (Vol. 3331, No. 1, p. 040019). AIP Publishing LLC.
9. Aytmuratova, U., Aytmuratov, K., & Umirzakova, R. (2025). Strategy For Attracting Investments By Expanding the Participation of Joint-Stock Companies in the Securities Market. MUHANDISLIK VA IQTISODIYOT, 3(6). <https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal/article/view/737/279>



10. Daniyarov, K., Baymuratova, Z., Kalimbetov, K., Aytmuratova, U., Yusupova, R., Dauletalieva, A., & Ospanova, F. (2025, November). Financial assistance with business activities in the energy sector. In AIP Conference Proceedings (Vol. 3331, No. 1, p. 050003). AIP Publishing LLC.



INNOVATIVE  
ACADEMY